

FUTBOL SPORT TURINING RIVOJLANISH TARIXI VA O'YIN TEXNIKASI

Namazov Zafar Abdurahimovich¹

Baratova Mohichexra Toxir qizi²

¹ JDPI, Jismoniy madaniyat fakulteti, sport turlarini
o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi,

² JDPI, Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6338655>

Annotatsiya: Futbol bo'yicha jahon chempionati dunyodagi eng ko'p tomosha qilingan sport musobaqasidir. Ushbu maqolada futbol sport turining rivojlanish tarixi va o'yin texnikasi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Sharq xalqlari, futbol o'yini, o'yin taktikasi, jamoaviy o'yin, kichik maydonlar, charm to'plar, jismoniy rivojlantirish, sport natijalari, texnik usullar, ma'naviy, irodaviy xislatlar.

Respublikamizda Jismoniy tarbiya va sport xalq salomatligini yanada mustahkamlash, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishiga aylantirilgan. Shu bilan bir qatorda mahoratli sportchilarni tayyorlash, ularni nufuzli musobaqalarda ishtirokini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Futbol sport turi qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Qadimgi yunonlar to'p o'yinini shunchalik qadrlaganlarki, uni hatto gimnaziya-maxsus maktablarning jismoniy mashqlar dasturiga kiritganlar. Futbol - bu dunyodagi eng mashhur jamoaviy o'yin hisoblanadi. Miloddan avvalgi III asrda ularni kichik maydonlarga kiritish uchun charm to'plar bilan o'ynagan svilizatsiyalarning dalillari allaqachon mavjud bo'lgan. Futbolning mavjudligiga oid eng qadimgi yozma dalillar Xitoyning Xan sulolasida tashkil topgan deb taxmin qilinadi. Futbol so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «oyoq to'pi» degan ma'noni bildiradi. Hozirgi zamon futbolining «ajdodi» bundan ikki ming yil avval qadimgi Sharq xalqlari va antik dunyo davlatlari Gretsiya va Rimda ma'lum bo'lgan «Garponon» (o'sha paytda futbol shunday atalar edi) o'yinini o'ynagan qadimgi Gretsiya o'smirlari maydon o'rtasidan turib to'pni raqiblar tomoniga o'tkazishgan, Goy Yuliy Sezarning rimlik ligionerlari to'pni har qanday usul va priyomlarni qo'llagan holda ustunlar orasiga kirgizishga harakat qilganlar. O'rta asrlarda o'yin keng tus oldi. Bunda ko'cha va qishloqlar maydon o'rnida xizmat qilardi. Musobaqalar kun o'rtasida boshlangan va qorong'u tushgancha davom etgan. To'pni butun shahar bo'ylab ma'lum bir joygacha surib kelishga erishgan «komanda» g'olib hisoblangan.

Futbol sport turining xalq, ommasini jismoniy rivojlantirishning, uning salomatligini mustahkamlashning eng ommabob, vositasi hisoblanadi. Bu kattalarga ham, o'smirlarga ham, bolalarga ham birdek ma'qul bo'lgan chinakam o'yin hisoblanadi. Futbol o'yini bu chinakam atletik o'yin sanaladi. U tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilik va sakrovchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Futbolchi o'yin paytida xaddan tashqar ko'p ish bajaradi. Bu esa odamning funksional imkoniyatlari darajasini oshirishga, ma'naviy, irodaviy xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Futbol o'ynash umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rishda yaxshi vosita bo'lib xizmat qila oladi. Yuksak sport natijalariga erishish ko'p jihatdan futbolchining ana shu xilma-xil vositalarni qanchalik to'liq bilishiga, raqib jamoa o'yinchilari qarshilik ko'rsatayotgan,

ko'pincha charchoq orta borayotgan sharoitda o'yin faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan, samarali qo'llanishga bog'liq. Futbol texnikasini yaxshi bilish futbolchining har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi va garmonik kamol topishidagi ajralmas qismidir.

O'yin taraqqiyotining yuz yildan ortiq tarixi mobaynida futbol texnikasida muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Hozirgi futboldagi texnik usullar o'yin xarakatlari tezligi va aniqligini oshirish uchun kuchdan etarlicha tejab [foydalanish imkonini beradigan](#), biomexanika nuqtai nazaridan maqbul harakat tizimi bilan xarakterlanadi. Futbol o'yini texnikasini qo'llanishga qo'yiladigan hozirgi kundagi talab ana shundan iborat bo'ladi. Futbol o'yining negizida o'yinchilarni umumiy maqsadi hamma g'alabaga intilish birlashtirib turgan jamoalardan ikkitasining kurashi yotadi. G'alabani qo'lga kiritishga intilish futbolchilarni jamoa bo'lib harakat qilishga bir-biriga o'zaro yordam berishga o'rgatadi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Futbol o'yini vaqtida har bir o'yinchi o'zining shaxsiy imkoniyatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda futbol dunyodagi eng mashhur sport turi hisoblanadi. Bu 240 milliondan ortiq odam o'ynaydi va 200 dan ortiq mamlakatlarda o'ynaydi. Futbol bo'yicha jahon chempionati dunyodagi eng ko'p tomosha qilingan sport musobaqasidir. Futbol o'yinidan maqsad [to'pni](#) raqib [darvozasiga](#) kiritishdir. Bunga har bir jamoadagi [darvoza](#) xalaqit berishga intiladi, unga o'z darvozasi yaqinidagi jarima maydonchasi ichida to'pga qo'l bilan teginish ruxsat etilgan bo'ladi. Futbol o'yinini barcha yosh guruhlaridan boshlab o'yinga o'rgatish, jismonan sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlarida muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Nurimov Z. R., Iseyev Sh. T. Qurbonov O. A., Davletmuratov S. R., Futbol nazariyasi va uslubiyati TOSHKENT – 2015
2. Akramov R.A. Futbol. Darslik Toshkent. 2005
3. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005.
4. Pavlov Sh.K. Abdalimov O.X, Matxalikov I. "Gandbol" (musobaqa qoidalari, ularni tashkil etish va o'tkazish) 2015 yil.